“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=310

2025-yil
2-son
iyul
ISSN 3093-8546



Fuqarolik sud ishlarini ko‘rishda taalluqlilik qoidalarining buzilishi oqibatlari tahlili

Samandar Abdihakimov,
Toshkent davlat yuridik universiteti
tayanch doktoranti
e-mail: samandarabdihakimov86@gmail.com

Аннотация. Ушбу мақолада фуқаролик суд ишларини юритишда тааллуқлилик қоидаларини тўғри қўллаш ва бугунги кундаги тааллуқлилик борасидаги қонунчиликкамаълум бир ўзгариш ва қўшимчаларнинг киритилиши натижасида қабул қилинган янги процессуал ҳуқуқ нормаларининг қўлланилиши тартиби таҳлил қилинган. Шунингдек, тааллуқлилик қоидаларига амал қилинмасдан суд ҳужжатлари қабул қилинганида қандай оқибатлар вужудга келиши келтирилган. Жумладан, фуқаролик суд ҳужжатларидан бири ҳисобланган суд ҳал қилув қарорларини қабул қилишда тааллуқлик қоидаларига амал қилиш муҳим ҳисобланади. Ушбу қоидаларга амал қилинмаслиги натижасида қабул қилинган суд ҳал қилув қарорлари фуқаролик процессуал қонунчиликка мувофиқ бекор қилиниши ёки ўзгартирилиши мумкин. Айнан, тааллуқлилик қоидаларига амал қилинмаслиги оқибатлари процессуал ҳуқуқ нормаларининг бузилиши ёки нотўғри қўлланилиши асосларидан бири сифатида фуқаролик процессуал кодексида қатъий белгиланган. Ушбу асоснинг вужудга келиш сабаблари ва суд ҳал қилув қарорларини бекор қилиш ёки ўзгартиришга қанчалик таъсир қилиши таҳлиллари келтирилган. Шунингдек, ушбу таҳлиллар натижасида умумий хулосаларга келинган.

Калит сўзлар. тааллуқлилик, ҳал қилув қарорлари, процессуал ҳуқуқ нормалари, аризани рад қилиш, суд босқичлари, судя, суд баённомаси, ишда иштирок этувчи шахслар.

Аннотация. В данной статье анализируется порядок применения новых норм процессуального права, принятых в результате правильного применения правил подведомственности в гражданском судопроизводстве и внесения определенных изменений и дополнений в действующее законодательство о подведомственности. Также приведены последствия принятия судебных актов без соблюдения правил подведомственности. В частности, важно соблюдать правила подведомственности при принятии судебных решений, которые считаются одним из гражданских судебных документов. Потому что судебные решения, принятые в результате несоблюдения этих правил, могут быть отменены или изменены в соответствии с гражданским процессуальным законодательством. Именно, последствия несоблюдения

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

правил подведомственности строго определены в Гражданском процессуальном кодексе как одно из оснований нарушения или неправильного применения норм процессуального права. Приведен подробный анализ причин возникновения данного основания и степени его влияния на отмену или изменение судебных решений. Также в результате этих анализов были сделаны общие выводы.

Ключевые слова. подведомственность, решения, нормы процессуального права, отвод заявления, судебные инстанции, судья, протокол суда, лица, участвующие в деле.

Annotation. This article analyzes the correct application of the rules of jurisdiction in civil proceedings and the procedure for applying the new norms of procedural law adopted as a result of certain changes and additions to the current legislation on jurisdiction. It also describes the consequences of the adoption of judicial acts without observing the rules of jurisdiction. In particular, it is important to comply with the rules of jurisdiction when making court decisions, which is one of the acts of civil court. Because court decisions made as a result of non-compliance with these rules may be canceled or amended in accordance with civil procedural legislation. It is precisely the consequences of non-compliance with the rules of jurisdiction that are strictly defined in the Civil Procedure Code as one of the grounds for violation or incorrect application of the norms of procedural law. An analysis of the reasons for the emergence of this basis and how it affects the cancellation or amendment of court decisions is given in detail. Also, as a result of these analyses, general conclusions were drawn.

Keywords. jurisdiction, decisions, norms of procedural law, rejection of an application, court stages, judge, court record, persons participating in the case.

Sud bosqichlari fuqarolik sud ishlarini yuritishdagi amalga oshiriladigan alohida protsessual qoidalar yig‘indisi hisoblanadi. Protsessualist olimlar tomonidan sud bosqichlariga turli xil ta’riflar berilgan. A.A. Vlasovning fikricha, fuqarolik protsessining bosqichlari deganda, sud ishlarini yuritish maqsadini o‘zida birlashtiruvchi protsessual harakatlarning yig'indisi tushuniladi [14, C.28, 29]. M.S. Akaryan ham fuqarolik protsessining bosqichlari yakuniy maqsadga erishishga yo‘naltirilgan protsessual harakatlarning yig‘indisi ekanini ta’kidlaydi [6, C.22].

Bir qator milliy huquqshunos olimlar esa fuqarolik protsessining bosqichlari fuqarolik sud ishlarini yuritishning vazifalarini amalga oshirish, fuqarolik ishlarini to‘g‘ri va o‘z vaqtida ko‘rib chiqish va hal etish kabi muhim maqsadga yo‘naltirilgan protsessual harakatlar yig‘indisi deb hisoblashadi [11, C.36].

Yuqorida keltirilib o‘tilgan protsessualist olimlar tomonidan sud bosqichlari turlarini turlicha keltirishiga qaramasdan, ushbu bosqichlardan biri sifatida sud hujjatlarini bekor qilish instituti keltiriladi. Sud hujjatlari, jumladan sud hal qiluv qarorlarini qayta ko‘rishda sud hujjatlarini bekor qilish asoslari muhim ahamiyatga

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

ega. Chunki, ushbu asoslar orqali oldin qabul qilingan sud hal qiluv qarorlari yuqori instansiya tomonidan bekor qilinishi yoki o‘zgartilishi mumkin bo‘ladi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, fuqarolik sud ishlarini yuritishda taalluqlilik qoidalariga amal qilmaslik oqibatida yuz beradigan muammolar va ularning sud hujjatlarini qayta ko‘rish asoslari bilan bog‘liq jihatlarini o‘rganish va takomillashtirish orqali sudga murojaat qiluvchi shaxslarning huquq va manfaatlarini aks ettirish mumkin bo‘ladi. Chunki, sud hujjatlarini bekor qilish asoslari sud hujjatlarini qayta ko‘rish bosqichidagi alohida protsessual institut sifatida qaraladi. Ushbu protsessual institut huquq sohasida kam o‘rganilgan va qayta ko‘rib chiqish talab etiladigan sohalardan biri sifatida qaraladi. Sud hujjatlarini bekor qilish asoslari esa, juda keng qamrovli hisoblanadi. Shu sababli ulardan aynan taalluqlilik qoidalari buzilishi natijasida sud hal qiluv qarorlarining bekor bo‘lishi yoki o‘zgartirilishi asosini alohida o‘rganish mumkin.

Fuqarolik sud ishlarini yuritishda taalluqlilik qoidalarini qo‘llash borasida juda ko‘p huquqshunos protsessualist olimlar o‘z ilmiy ishlarida tadqiq qilgan. Ammo taalluqlilik qoidalarining buzilishi oqibatlari alohida tadqiqot obyekti sifatida atroflicha o‘rganilmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, sud hujjatlarini bekor qilish asoslaridan biri sifatida fuqarolik sud ishlarini yuritishda taalluqlilik qoidalarining buzilishi oqibatlarini ko‘rib chiqish mumkin.

Fuqarolik sud ishlarini yuritishda taalluqllilik qoidalarining qo‘llanilishi va uning buzilishi natijasidagi kelib chiqadigan oqibatlar yuzasidan ilmiy izlanishlar davomida taalluqlilik tushunchasi va taalluqlilik qoidalariga duch kelamiz. Quyida fuqarolik sud ishlarini yuritishda taalluqlilik institutining ahamiyati borasidagi mahalliy va xorijiy huquqshunos olimlarning fikrlari bilan tanishib chiqamiz.

Xususan, D.Y. Xabibullayev fuqarolik ishlarining taalluqliligi deganda fuqarolik ishlarini ko‘rish, hal etish sud yoki boshqa davlat organlari, shuningdek jamoat tashkilotlariga tegishli ekanini ta’kidlaydi [15, C.27].

Z.N. Esanova ham taalluqlilik deganda kelib chiqayotgan nizolarni sud va boshqa organlar tomonidan ko‘rib hal qilish vakolatining chegaralanishi ekanini keltiradi [8, C.19].

I.M. Salimova esa fuqarolik ishlarining taalluqliligi deganda fuqarolik ishlarini ko‘rish va hal qilish vazifasi qonun hujjatlari bilan qaysi davlat hokimiyati organi yoki mansabdor shaxsi yoxud nodavlat organ (hakamlik sudi, mediator) vakolatiga berilganini aniqlovchi protsessual institut, deya ta’rif beradi [11, C.50].

M.M. Mamasiddiqov taalluqlilik shaxslarning sudga murojaat qilishga bo‘lgan huquqlarini yuzaga keltiradigan yuridik shartlardan ekanligi uning fuqarolik protsessual huquqning asosiy institularidan biri hisoblanishini ta’kidlaydi [12, C.253].

Milliy huquqshunos olimlar bilan birgalikda chet el huquqshunos olimlari ham taalluqlilik qoidalarini atroflicha tadqiq qilishgan. Jumladan, S.I. Knyazkin, I.A. Yurlovlar taalluqlilik tushunchasini hal etilishi lozim bo‘lgan fuqarolik, ma‘muriy va iqtisodiy ishlarning aniq bir yurisdiksiya organlari, ya’ni: davlat sudlari, hakamlik sudlari, notariat, shuningdek boshqa organlar va tashkilotlar ish yurituviga tegishliligi deb tariflaydi [10, C.45].

Yu.A. Borzenkoning fikricha, taalluqlilik deganda huquq borasidagi nizoning yoki boshqa huquqiy ishlarning muayyan organ kompetensiyasiga tegishliligi nazarda tutiladi [7, C.38].

M.K. Treushnikov taalluqlilik deganda fuqarolik protsessual huquqi doirasida sudlar, hakamlik sudlari, notariat, mehnat nizolarini ko‘rib chiqish va hal etish organlari, davlatning boshqa organlari va boshqa ayrim huquqiy masalalarni ko‘rib chiqish va hal etish huquqiga ega bo‘lgan tashkilotlar o‘rtasidagi ishlarning taqsimlanishini nazarda tutadi [13, C.5].

V.A. Filanovskiy fuqarolik protsessual qonunchiligida taalluqlilik qoidalarini keng va tor ma’noda farqlaydi. Keng ma’noda olib qaralganda taalluqlilik tushunchasi qonun yoki boshqa huquqiy hujjatga ko‘ra u yoki bu davlat hokimiyati organi yoxud mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan hal etilishi lozim bo‘lgan masalalar, shu jumladan huquqiy bo‘lmagan masalalar majmuini qamrab olishini nazarda tutadi. Tor ma’noda esa “sudga taalluqlilik” an’anaviy ravishda davlat hokimiyat organlari tomonidan hal etilishi lozim bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi nizolar hamda boshqa ishlarning turli davlat, jamoat, aralash (davlat-jamoat) organlari va hakamlik sudlari yurisdiksiyasiga taalluqliligi, yuridik ishlarning xususiyati sifatida esa ular muayyan yurisdiksiya organlari tomonidan hal etilishi lozimligini belgilab beradi [9].

Yuqoridagi protsessualist olimlarning fuqarolik sud ishlarini yuritishda taalluqlilik institutiga berilgan ta’riflardan shuni aytish mumkinki, taalluqlilik alohida muhim protsessual institut sifatida qaraladi. Shu sababli, ushbu institutning mohiyati, ahamiyati, vazifalari va unga amal qilmaslikning oqibatlarini tahlil qilish muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida sud hujjatlarini bekor qilish yoki o‘zgartirish asoslari aniq belgilab qo‘yilgan. Ya’ni ushbu kodeksning 3722-moddasiga ko‘ra sud hujjatlarini bekor qilish asoslari quyidagi turlarga ajratilgan:

ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarning to‘liq aniqlanmaganligi;

sud aniqlangan deb hisoblagan, ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarning isbotlanmaganligi;

sud hujjatida bayon etilgan sud xulosalarining ish holatlariga muvofiq emasligi;

bildirilgan talab bo‘yicha sud tomonidan sud hujjatining qabul qilinmaganligi;

moddiy va protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto‘g‘ri qo‘llanilganligi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Sud hujjatlarini bekor qilish yoki o‘zgartirish asoslarini yuqoridagi alohida turlarga ajratishdan asosiy maqsad, sud hujjatlarini qayta ko‘rishda kamchiliklar va nomuvofiqliklarning oldini olish hisoblanadi. Ushbu asoslarning eng muhimlaridan biri protsessual huquq normalarining buzilishi yoki noto‘g‘ri qo‘llanilishidir. Ushbu sud hujjatlarini bekor qilish asoslari ham o‘z navbatida bir nechta turlarga bo‘linadi. Jumladan, Fuqarolik protsessual kodeksining 3724-moddasida uning turlari batafsil keltirilgan. Ya’ni ular:

ish sud tomonidan g‘ayriqonuniy tarkibda yoki taalluqlilik to‘g‘risidagi qoidalar buzilgan holda ko‘rilgan bo‘lsa;

ish sud tomonidan sud muhokamasida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan, ammo sud majlisining vaqti va joyi to‘g‘risida xabardor qilinmagan shaxslardan biror-biri yo‘qligida ko‘rilgan bo‘lsa;

ish ko‘rilayotganida sud ishlari yuritiladigan tilga doir qoidalar buzilgan bo‘lsa;

sud ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan shaxslarning huquq va majburiyatlari to‘g‘risidagi masalani hal qilgan bo‘lsa;

sudning hal qiluv qarorini, ajrimini, qarorini chiqarishda sud maslahatining sir saqlanishiga doir qoidalar buzilgan bo‘lsa;

hal qiluv qarori, ajrim, qaror ishni ko‘rgan va hal qilgan sudyalardan (sudyadan) boshqa sudyalar (sudya) tomonidan imzolangan bo‘lsa;

sud majlisi bayonnomasi imzolanmagan bo‘lsa, sudning hal qiluv qarori, ajrimi, qarori ham bekor qilinishi mumkin.

Yuqoridagi asoslardan biriga – ish sud tomonidan g‘ayriqonuniy tarkibda yoki taalluqlilik to‘g‘risidagi qoidalar buzilgan holda ko‘rilgan bo‘lsa sud hujjatlari o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishiga atroflicha to‘xtalishimiz kerak.

Demak, ushbu normadan kelib chiqqan holda taalluqlik qoidalarini buzilishi oqibatida sud hal qiluv qarorlarini bekor qilish asoslarini tahlil qilish lozim. Shu sababli, birinchi navbatda taalluqlilik qoidalari nima ekaniga alohida to‘xtalish lozim.

Yuqoridagi tahlillarda keltirilganidek, protsessualist olimlar tomonidan sudga taalluqlilik tushunchasiga turlicha ta’riflar keltiriladi. Ammo, umumiy qilib aytganda ishlarning sudga taalluqliligi deganda, fuqarolik ishlarini ko‘rish va hal qilish vazifasi qonun hujjatlari bilan qaysi davlat hokimiyati organi yoki mansabdor shaxsi yoxud nodavlat organ vakolatiga berilganligini aniqlovchi protsessual institut sifatida qarashimiz mumkin bo‘ladi. Sudga taalluqli ishlar ham aynan fuqarolik, iqtisodiy va ma’muriy sudlar o‘rtasidagi taqsimotning ham vujudga kelishiga sabab bo‘ladi.

Shu sababli, fuqarolik sud ishlarinining taalluqlilik doirasini aniqlab olish zarur. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual kodeksi beshinchi bobi sudga taalluqlilik va sudlovga tegishlilik masalalari belgilab qo‘yilgan. Ushbu kodeksning 26-moddasiga ko‘ra fuqarolik sudlariga taalluqli ishlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

fuqarolik, oila, mehnat, uy-joy, yer va boshqa munoasabtlardan kelib chiqadigan, kamida bir taraf jismoniy shaxs hisoblangan nizolardan kelib chiqadigan ishlar;

fuqarolik protsessual qonunchiligida belgilab qo‘yilgan alohida tartibda yuritiladigan ishlar;

buyruq tartibida yuritiladigan ishlar;

hakamlik sudi hal qiluv qarorlari bilan bog‘liq ishlar (faqat fuqarolik sudlariga taalluqli ishlar doirasidagi);

chet el davlat sudlari yoki arbitrajlarining hal qiluv qarorlari bilan bog‘liq ishlar;

korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining ma’muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlari hamda ular mansabdor shaxslarining shunday harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi ishlar.

Demak, ushbu normadan kelib chiqqan holda fuqarolik sudlariga kelib tushgan ishlar hammasi mana shu asoslardan birortasiga tushmasa, ariza rad qilinishi yoki taalluqliligi bo‘yich tegishli sudga jo‘natilishi lozim.

Fuqarolik protsessual kodeksining 194-moddasi birinchi qismi birinchi bandiga ko‘ra, agar fuqarolik sudlariga kelib tushgan ariza fuqarolik, iqtisodiy yoki ma’muriy sudlarga taalluqli bo‘lmasa, ariza ishga qabul qilinishi rad etilishi belgilangan. Ushbu norma yaqin yillardagi sud tizimidagi islohatlar natijasida o‘zgarishga uchradi. Chunki, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 26-apreldagi “Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya qilinishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” qonuni qabul qilingunga qadar eski tahrirda Fuqarolik protsessual kodeksi bo‘yicha fuqarolik sudiga taalluqli bo‘lmagan ishlar kelib tushganda, ularning ishga qabul qilinishi rad etilishi qat’iy belgilangan edi. Yangi qabul qilingan qonunga ko‘ra, endi fuqarolik sudlariga emas, balki iqtisodiy yoki ma’muriy sudlarga taalluqli ishlar kelib tushgan holda, ushbu arizalar rad etilmaydi. Aksincha ular taalluqliligiga ko‘ra tegishli sudga yo‘naltiriladi.

Shu sababli, Fuqarolik protsessual kodeksiga 311-modda sifatida ish materiallarini sudga taalluqliligiga ko‘ra fuqarolik ishlari bo‘yicha suddan boshqa sudga o‘tkazish mazmunidagi yangi norma bilan to‘ldirildi.

Yuqoridagi qonunning qabul qilinishining asosiy sabablaridan biri – fuqarolarning sudlarga murojaat qilganida ortiqcha ovoragarchiliklarning oldini olish hisoblanadi. Chunki, taalluqlilik masalasi yuzasidan ariza rad qilinganida sudga murojaat qiluvchi shaxslar yangidan tegishli sudga murojaat qilishi uchun qo‘shimcha vaqt talab qiladi. Bu esa sudga murojaat qiluvchi subyektlar o‘rtasida sudga nisbatan ishonchsizlikning vujudga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Yangi tahrirdagi qoida asosida esa

bularning oldi olinadi.

Taalluqlilik qoidalariga protsessualist olimlar ta’kidlaganidek, sudda ishlarning ko‘rilishidagi eng muhim institutlardan biri sifatida qaraladi. Chunki, agar ushbu qoidalar buzilgan holda, ya’ni fuqarolik sudlarida iqtisodiy yoki ma’muriy sudlarga taalluqli masalalar ko‘rilishi yoki suddan boshqa organga taalluqli bo‘lgan ishning ko‘rilishi ishni mazmunan to‘g‘ri hal qilinishiga to‘sqinlik qiladi.

Fuqarolik sudlari oldida o‘zlariga taalluqli hisoblanmagan ish kelib tushganida uchta asosiy yo‘l turadi:

birinchisi, arizani ishga qabul qilishni rad etish;

ikkinchisi, arizani taalluqliligiga ko‘ra boshqa sudga jo‘natish;

uchinchisi, ish yuritishni tugatish.

Birinchisi, bu ariza kelib tushgandan so‘ng, agar u fuqarolik sudlari, iqtisodiy va ma’muriy sudlarga taalluqli bo‘lmasa, Fuqarolik protsessual kodeksi 194-moddasi birinchi qimsiga ko‘ra ariza ish yurituvga qabul qilishni rad qilish to‘g‘risida ajrim rasmiylashtirish lozim. Shuningdek, murojaat qiluvchi subyektga qayerga murojaat qilishi to‘g‘risida aniq tushuntirishlar berilishi kerak.

Ikkinchisi esa, agar fuqarolik sudiga kelib tushgan ariza iqtisodiy yoki ma’muriy sudlarga taalluqli bo‘lsa, Fuqarolik protsessual kodeksi 311-moddasiga ko‘ra tegishli sudga yuborilishi to‘g‘risida ajrim chiqarilishi lozim bo‘ladi.

Uchinchi yo‘l sifatida esa qachonki, fuqarolik, iqtisodiy yoki ma’muriy sudlardan biriga taalluqli bo‘lmagan ariza sud ish yurituviga qabul qilinganligi aniqlansa, Fuqarolik protsessual kodeksi 124-modda birinchi qism birinchi bandi bilan ish yuritish tugatilishi mumkin bo‘ladi.

Taalluqlilik qoidalarini sinchkovlik bilan tekshirish, keyinchalik ariza yuzasidan ko‘riladigan ishlardagi ortiqcha ovoragarchilik va tushunmovchiliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, taalluqlilik qoidalariga bu ishning aynan sud ixtisosligiga tegishlilikni bildirib, ish aynan shu sohadagi sudyalar tomonidan ko‘rib chiqilishini bildiradi. Bu esa, sud hujjatlarining samaradorligini oshiradi. Ushbu qoidalarga amal qilinmasdan, sud hujjatlari, ayniqsa hal qiluv qarorlari qabul qilinidagina bo‘lsa, fuqarolik protsessual qonunchilik asosida sud hujjati bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkin bo‘ladi.

Fuqarolik sud ishlarini yuritishda taalluqlilik qoidalari eng muhim protsessual institutlardan biri hisoblanadi. Ushbu institut faoliyati turli xil milliy va xorijiy protsessualist olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan va taalluqlilik nima ekaniga va uning ahamiyati qanday ekaniga turlicha baho berishgan. Ushbu tahlillar shuni ko‘rsatadiki, fuqarolik sud ishlariga taalluqlilik bu fuqarolik ishlarining u yoki bu davlat yoki nodavlat organlariga tegishli ekani, shuningdek bu ishlar boshqa organ emas sudlarga taalluqli bo‘lganida esa fuqarolik, iqtisodiy va ma’muriy sudlar o‘rtasida taqsimlanishini bildiradi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (The Constitution of the Republic of Uzbekistan) https://lex.uz/docs/6445145

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevral kuni sud faoliyatini yanada yaxshilash, ochiqlik va raqamlashtirish darajasini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan yig‘ilishdagi nutqi (Address by the President of the Republic of Uzbekistan on February 27, 2025, at a meeting on measures to further improve the activities of the judiciary, increase the level of openness and digitalization) https://president.uz/oz/lists/view/7911

3. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi (Civil Procedure Code of the Republic of Uzbekistan) https://lex.uz/docs/-3517337

4. O‘zbekiston Respublikasining 11.10.2018-yildagi 496-sonli “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga odil sudlovni amalga oshirish samaradorligini yanada kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek “Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish haqida”gi qonuni. https://lex.uz/docs/-3977628

5. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 26-apreldagi “Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya qilinishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” qonuni (Law of the Republic of Uzbekistan dated April 26, 2023 “On Amendments and Additions to Certain Legislative Acts of the Republic of Uzbekistan in Connection with the Adoption of Additional Measures to Ensure the Effective Protection of the Rights of Citizens and Business Entities in Relations with State Bodies”) https://lex.uz/uz/docs/-6442570

6. Алексина С.А., Блажеев В.В. Шакарьян М.С. и др. Гражданское процессуальное право: Учебник - М.: ТК Вельби, Изд-во Проспект. 2004. - 584 с. (Aleksina S.A., Blajesv V.V. et al. Shakaryan M.S., Civil Procedural Law: Textbook - M.: TK Velbi, Publishing House Prospekt. 2004. - 584 p.)

7. Борзенко Ю.А. Арбитражное процессуальное право (Арбитражный процесс): учебное пособие. -Новокузнецк ФКОУ ВПО Кузбасский институт ФСИН России, 2014 – 156 б. (Borzenko Yu.A., Arbitration Procedural Law (Arbitration Proceedings): textbook - Novokuznesk FKOU VPO Kuzbass Institute of FSIN Russia, 2014 - 156 p)

8. Esanova Z.N., Fuqarolik protsessual huquqi [Matn]: o‘quv qo‘llanma - T.: TDYU nashriyoti, 2024. - 104 b. (Esanova Z.N., Civil Procedural Law [Text]: textbook - T.: TSUL Publishing House, 2024. - 104 p.)

9. Филановский В.А., Подведомственность дел об оспаривании нормативных правовых актов. Автореф... канд,

юрид. наук – СПб., 2002 (Filanovsky V.A. Jurisdiction of Cases on Disputing Normative Legal Acts. Avto-ref... lis, Candidate of Juridical Sciences. - SPb., 2002.) https://www.dissercat.com/content/podvedomstvennost-del-ob-osparivanii-normativnykh-pravovykh-aktov

10. Князкин С.И., Юрнов И.А., Гражданский, арбитражный и административный процесс в схемах с комментариями - М. Инфотроник Медиа, 2015 – 728 б. (Knyazkin S.I., Yurnov I.A., Civil, Arbitration and Administrative Proceedings in Diagrams with Commentary - M. Infotronik Media, 2015.)

11. Mamasiddiqov M.M., Xabibullayev D.Y., Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi -Toshkent. «Lesson press» nashriyoti. 2020. -607 b. (Mamasiddiqov M.M., Xabibullayev D.Y., Civil Procedural Law. Textbook. Team of authors - Tashkent. Lesson Press Publishing House. 2020. - 607 p.)

12. Mamasiddiqov M.M., Fuqarolik protsessual huquqi. Umumiy qism / Oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik. Mas’ul muharrir y.f.d., prof. O. Oqyulov. -Toshkent.: TDYU nashriyoti. 2010. – 534 b. (Mamasiddikov M.M., Civil Procedural Law. General Part / Textbook for university students. Editor-in-Chief, Doctor of Law, Professor. O. Okyulov. -Tashkent.: TDYUI Publishing House. 2010. - 534 pages.)

13. Треушников М.К., заслуженный деятель науки РФ, докт. юрид. наук, проф. Методические рекомендации по изучению курса “Гражданский процесс”, Программа учебной дисциплины “Гражданский процесс”, гл. 5 (Treushnikov M.K., Honored Scientist of the Russian Federation, Doctor of Juridical Sciences, Professor - Methodological Recommendations for the Study of the Course «Civil Procedure,» Program of the Educational Discipline «Civil Procedure,» Chapter 5)

14. Власов А.А., Гражданское процессуальное право: Учебник. -М.: ТК Вебли, 2004. - 423 С. (Vlasov A.A., Civil Procedural Law: Textbook. - M.: TK Vebli, 2004. - 423 P.)

15. Xabibullayev D.Y., Fuqarolik protsessual huquqi (savollar va javoblar) (Matn]: o‘quv qo‘llanma - T.: TDYU nashriyoti, 2023. -336 b. (Khabibullayev D.Y., Civil Procedural Law (Questions and Answers) (Text]: textbook - T.: TSUL Publishing House, 2023. - 336 p.)